

KREATIVLIK TUSHUNCHASI: MOHIYATI, TURLARI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Vahobova Shahzoda

Samarqand davlat pedagogika instituti Magistranti

MAQOLA MALUMOTI	ANNOTATSIYA:
MAQOLA TARIXI: <i>Received: 09.12.2025</i> <i>Revised: 10.12.2025</i> <i>Accepted: 11.12.2025</i>	<i>Mazkur maqolada kreativlik tushunchasining mohiyati, uning asosiy turlari va rivojlanish bosqichlari ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Shuningdek, kreativlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar, ta'lim jarayonida ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hamda o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirishning samarali yondashuvlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari kreativlikning shaxs rivojida o'rni va ta'lim amaliyotida uning ahamiyatini chuqur anglashga xizmat qiladi.</i>
KALIT SO'ZLAR: <i>kreativlik, kreativ fikrlash, kreativlik turlari, rivojlanish bosqichlari, pedagogik omillar, ijodkorlik, shaxs rivoji, ta'lim jarayoni</i>	

Kirish

Bugungi kunda inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy taraqqiyotga intilish va ta'lim tizimida yangicha fikrlashni shakllantirish jarayonida kreativlik tushunchasi alohida o'rin tutadi. Har qanday jamiyatning barqaror rivojlanishi, uning a'zolari - ayniqsa yosh avlod - ijodiy va mustaqil fikrlay olish qobiliyatiga bog'liq. Shu boisdan, kreativlik inson tafakkurining yuksak shakli sifatida o'rganilib, zamonaviy ta'lim tizimida markaziy tushuncha sifatida qaralmoqda.

Kreativlik so'zi ingliz tilidagi "create" (yaratmoq) so'zidan olingan bo'lib, yangilik yaratish, odatiy fikrlash, mavjud hodisalarga yangicha yondashish qobiliyatini bildiradi. Psixologiyada bu tushuncha inson tafakkurining eng yuqori darajadagi ijodiy shakli sifatida qaraladi.

Kreativlik insonning intellektual imkoniyatlari, hissiy holati, shaxsiy fazilatlarini ijtimoiy tajribasi bilan uzviy bog'liq. Masalan, G. G'uilford, E. Torrens, A. Maslou kabi olimlar kreativlikni shaxsning mustaqil fikrlash, yangi g'oyalarni ilgari surish va ularni amaliyotda qo'llay bilish qobiliyati sifatida izohlaydi. Kreativlik nafaqat san'at yoki adabiyot sohalarida, balki har qanday kasbiy faoliyatda, kundalik hayotda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativlik tushunchasi o'zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi.

G'arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular "Kreativlik negizida noan'anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg'usi va erkinlik mavjud"¹⁹ – deb uning bo'lishiga e'tiborni qaratadilar. Sharqliklar esa, aksincha, "Kreativlikni ezgulikning qayta tug'ilish jarayoni"²⁰ – deb tushunadilar. Garchi g'arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo'lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar. Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, kreativlik o'quvchi yoki talabanning o'qituvchi tomonidan yaratilgan ta'limiy muhitda mustaqil fikr yuritish, muammoni hal qilish, yangi yechim topish, G'oyalar ishlab chiqish va ularni amaliy faoliyatga tatbiq eta olish qobiliyatidir.

Kreativlikning bir nechta turlari mavjud bo'lib, ular asosan inson faoliyatining xarakteriga, motivatsiyasiga va fikrlash darajasiga ko'ra farqlanadi.

Psixologik manbalarda kreativlik quyidagi turlarga ajratiladi:

Intellektual kreativlik - bu aqliy faoliyat jarayonida yangi G'oyalar yaratish, noodatiy yechimlar topish va innovatsion fikrlashni ifodalaydi.

Ijtimoiy kreativlik - bu shaxsning kommunikativ ko'nikmalari, boshqalar bilan samarali muloqot qilish, jamoadagi muammolarga ijodiy yondashish qobiliyati.

Badiiy (estetik) kreativlik - san'at, adabiyot, musiqa kabi sohalarda yangi obrazlar, kompozitsiyalar yaratish qobiliyati.

Texnik kreativlik - texnologik jarayonlarda yangilik yaratish, texnik muammolarga original yechim topish bilan bog'liq.

Pedagogik kreativlik - o'qituvchining o'quv jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo'llashi, ta'limni shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil etish qobiliyati.

Ushbu turlar bir-birini to'ldiradi va inson faoliyatining turli jabhalarida namoyon bo'ladi. Shu bois, ta'lim jarayonida kreativlikni faqat bir yo'nalishda emas, balki kompleks tarzda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kreativlikning rivojlanish jarayoni bosqichma-bosqich kechadi. Turli psixologlar bu bosqichlarni turlicha tavsiflaydilar, ammo umumiy jihatdan quyidagi uch asosiy bosqichni ajratish mumkin:

Tayyorlov bosqichi - bu bosqichda inson mavjud bilim va tajribalarni tablil qiladi, muammoni anglaydi va uni hal qilish zaruriyatini his etadi.

Inkubatsiya bosqichi - muammo yuzasidan faol fikrlash jarayoni to'xtagandek tuyuladi, ammo ong osti darajasida yangi g'oyalar shakllanadi.

Ilhom va amalga oshirish bosqichi - yangi g'oya paydo bo'lib, u amaliy faoliyatda qo'llanadi. Bu bosqichda shaxs o'z ijodiy natijasini namoyon qiladi. Bolalar va o'smirlar tafakkurining rivojlanishida kreativlikning shakllanishi, asosan, o'yin, rasm chizish, hikoya

¹⁹ Guilford, J. P. (1950). Creativity. American Psychologist.

²⁰ Xui, Sternberg, 2002 y.; Rudovich, Xui, 1997 y.; Rudovich, Yue, 2000

tuzish, muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali namoyon bo'ladi. Shuning uchun maktabgacha va maktab ta'limida kreativ faoliyatni qo'llab-quvvatlash juda muhimdir.

Ta'lim jarayonida kreativlikni rivojlantirish uchun quyidagi omillar muhim hisoblanadi:

1. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydigan topshiriqlar va muammoli vaziyatlarni qo'llash;

2. Ijodiy o'yinlar, interfaol metodlar va loyihalash texnologiyalaridan foydalanish;

3. O'qituvchining shaxsiy kreativligi va pedagogik mahoratini oshirish;

4. Rag'batlantiruvchi va erkin psixologik muhit yaratish;

5. Axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish orqali ijodiy yondashuvni kuchaytirish.

O'qituvchi o'z darslarini ijodiy tashkil etishi, o'quvchilarga mustaqil izlanish imkoniyatini berishi orqali ularda kreativ tafakkurni shakllantiradi. Bu esa nafaqat o'quvchilarning bilim sifatini oshiradi, balki ularni kelajakda innovatsion fikrlovchi shaxs sifatida voyaga yetishiga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, kreativlik – bu shaxsning yangilik yaratish, noodatiy fikrlash, muammoni original yo'l bilan hal etish qobiliyatidir. U inson tafakkurining eng yuqori shakli bo'lib, har bir ta'lim bosqichida rivojlantirilishi lozim. Kreativ fikrlashni shakllantirish o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishiga, jamiyatda innovatsion tafakkur egasi bo'lib yetishishiga zamin yaratadi. Kreativ qobiliyatni o'zida shakllantirgan shaxs xoh shaxsiy hayot yo'lida, xoh kasbiy faoliyatida bo'lsin komillikka qadam bosgan bo'ladi. Zero, inson bu hayotga kelibdiki komil bo'lishga harakat qiladi. Kreativlik qobiliyati esa bu pog'onaga yetishish uchun bir omildir. Shuning uchun o'qituvchilar, psixologlar va ota-onalar bu jarayonda faol ishtirok etishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" gi farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni.

3. B.Xodjayev " Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyati". Darslik.– T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2017-yil, 416 bet.

4. Pedagogik texnologiyalar – ta'lim samaradorligi omili: monografiyam /O.Musurmonova. – Toshkent : Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 184b.

5. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iste'dod" jamg'armasi. Toshkent, 2008 yil. – 180 bet.

6. Guilford, J. P. (1950). Creativity. American Psychologist.

-
7. Torrance, E. P. (1965). Rewarding Creative Behavior. Englewood Cliffs: Prentice-Hall.
 8. Maslow, A. (1970). Motivation and Personality. Harper & Row.
 9. Vygotsky, L. S. (1984). Imagination and Creativity in Childhood. Moscow.